O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“IQTISODIYOT NAZARIYASI” KAFEDRASI

“INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASI VA TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI”

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2024 YIL 15 MAY



SAMARQAND

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“IQTISODIYOT NAZARIYASI” KAFEDRASI

“Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasi va tarmoqlarini rivojlantirish muammolari”

respublika ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2024 yil 15 may

Samarqand-2024

UO'K: 338.465.2(575.1)
A 88
KBK: 65.9

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasi va tarmoqlarini rivojlantirish muammolari// respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2024 yil 15- may. Samarqand, SamISI, 2024. – 392 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
I.I.Ayubov – iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent.

Nashr uchun mas’ullar:
D.X.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor;
M.M.Muxammedov – iqtisod fanlari doktori, professor;
A.B.Shakarov – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent;
X.A.Ulashev – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent **;**
L.N.Xalikova – iqtisod fanlari doktori, professor v.b.;
O.D.Xamrakulova - iqtisod fanlari nomzodi, professor v.b.;
N.A.Kamilova – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent;
Yu.P.Urunbayeva – iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent;
M.I.Ibragimova – iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;
F.F.Salomov – iqtisod fanlari nomzodi, katta o’qituvchi;
Sh.A.Quldoshev – iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori, katta o’qituvchi.

Sahifalovchilar:
T.M.Amirov – SamISI “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi assistent-stajyori
T.I.Shukurov – SamISI “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi assistent-stajyori

Ilmiy – amaliy konferensiya materiallarida xizmatlar sohasi va tarmoqlarini rivojlantirish metodologiyasi va muammosi, bu soha uchun kadrlar tayyorlash masalalari, xizmat ko‘rsatish sohasini tez sur’atlar bilan rivojlantirish asosida aholi bandligini oshirish yo‘llarini ishlab chiqish bo‘yicha nazariy va amaliy tavsiyalar o‘rin olgan.

Ushbu to‘plamda professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilarning innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasi va tarmoqlarini rivojlantirish muammolariga bag‘ishlangan maqola va tezislar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan iqtisodiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar, magistrlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, davlat organlari xizmatchilari va shu soha mutaxassislari o‘z faoliyatlarida foydalanishi mumkin.

Tezislar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

Материалы научно-практической конференции содержат теоретические и практические рекомендации по методологии и проблеме развития сферы услуг и отраслей, вопросам подготовки кадров для данной сферы, разработке путей повышения занятости населения на основе опережающего развития сферы услуг.

Данный сборник содержит статьи и тезисы профессорско-преподавательского состава, докторантов, независимых исследователей, посвященных проблемам развития сферы услуг и отраслей в условиях инновационной экономики.

Материалы сборника могут быть использованы в своей деятельности бакалаврами, магистрами, докторантами, независимыми исследователями, служащими государственных органов и специалистами в этой области, обучающимися по направлению экономики.

Тезисы печатаются под авторским редактированием. Авторы несут ответственность за цифры, факты, выводы и рекомендации, представленные в них. Некоторые из их мнений могут не совпадать с взглядами организационной группы.

The materials of the scientific and practical conference contain theoretical and practical recommendations on the methodology and problem of the development of the service sector and industries, issues of personnel training for this area, and the development of ways to increase employment based on the advanced development of the service sector.

This collection contains articles and abstracts by faculty, doctoral students, and independent researchers devoted to the problems of development of the service sector and industries in an innovative economy.

The materials of the collection can be used in their activities by bachelors, masters, doctoral students, independent researchers, government officials and specialists in this field studying economics.

Abstracts are printed under the author's editing. The authors are responsible for the figures, facts, conclusions and recommendations presented in them. Some of their opinions may not coincide with the views of the organizational group.

ISBN: 978-9910-720-11-6

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024.
© “STEP-SEL” MChJ nashriyoti, 2024.

tan olingan sertifikatlar olishini rag‘batlantirish va o‘z ustida izchil mehnat qilish muhitini yaratish masalasi yotishini inobatga olib, bu borada olib boriladigan amaliy ishlarga ustuvor ahamiyat beriladi.

SHuni aytish mumkinki, bugungi kunda jahon bank tizimi va yirik tijorat banklari amaliyotidagi muammolar bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bank faoliyatining sifat jihatdan yangi darajaga chiqishini ta’minlovchi, undagi ichki va tashqi risklarni o‘z vaqtida aniqlash hamda ularni barataf etish imkoniyatlarini beruvchi, shuningdek, mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy tizimini rivojlantirish yo‘nalishlariga mos keluvchi va jahon moliya bozorlarida kuzatilayotgan salbiy tendensiyalarga qarshi ta’sirchan hamda har tomonlama puxta o‘ylangan bank strategiyasi yo‘nalishlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bank sohasida risklarni baholash orqali xizmatlar samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiyotida ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga qarab o‘zgarib turadi, ulardan samarali va oqilona foydalanish banklarning moliyaviy barqarorligini oshirishga va aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mamadiyarov Z. T. Bank xizmatlarini masofadan ko‘rsatish va raqamlashtirishning dolzarb jihatlari. Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 1-son 115-122 b.

2. Zuriddinova O. S. O‘zbekistonda bank xizmatlari bozorini rivojlantirish yo‘nalishlari. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 ISSN: 2181-1601. 905-910 b.

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASI VA TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Shodmanova Z. U. - SamISI “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Maqola innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasi va tarmoqlarini rivojlantirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashda xizmat ko‘rsatish sohasining ta’siri va rolini o‘rganishga qaratilgan. Shuningdek, yurtimizdagi texnologik yangilanishlar va innovatsion rivojlanish yo’nalishlarining bugungi kundagi ahamiyati baholanadi. Xizmatlar sohasining kengayib borishi bilan birga ishlab chiqarish hajmi va ulardan kelayotgan daromadlar ortib borishida innovatsion boshqarish usullari va texnologiyalardan foydalanishdagi muammolar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, texnologik innovatsiyalar,innovatsion ekosistema, startaplar, barqaror rivojlanish, innovatorlar, inkubatsiya markazlari, texnologik transfer.

Xizmatlar sohasi- bu korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko’rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toyifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan

zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko’riladi. Hozirgi kunda intellektual inson mehnati o'ziga xos rivojlanish va ahamiyat kasb etmoqda, uning bo'linishi maxsus ilmiy tayyorgarlikni, ko'p sonli ish o'rinlarini, odamlarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini yuqori darajadagi integratsiyalashuvni va ijtimoiy farovonlikni oshirishni talab qiladigan ko'plab mutaxassislik va kasblarni yaratmoqda.

Xzmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatining rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatlar va jihatlarga egadir. Shunga ko‘ra, muayyan omillar ta’sirini ifodalovchi mazkur soha rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalarini nazariy jihatdan yoritib berish alohida ahamiyatga egadir.

Ushbu tendensiyalar xizmatlar sohasi va boshqaruv bilan bevosita bog'liq bo'lib, inson faoliyatining boshqa sohalariga nisbatan uning jadal o'sishini belgilaydi. Iqtisodiyotning sanoat va qishloq xo'jaligiga nisbatan yuqori daromadi unga xos xususiyatdir. Shu bilan birga, xizmatlar ro'yxati doimiy ravishda kengayib bormoqda. Hozirgi kunda xizmatlar sohasi xizmatlarning tabiati, ularning maqsadi, faoliyat turlarining va xizmat ko'rsatish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli turli xil funktsiyalarga, manbalarga, ulanishlarga ega bo'lgan murakkab o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.

Rivojlangan mamlakatlarda ham xizmat ko‘rsatish iqtisodiyoti tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, xizmatlar ishlab chiqarish hajmi va ulardan daromadlar ortib bormoqda. Jahon savdo tashkiloti tasnifiga ko‘ra xizmatlar ko‘rsatish iqtisodiyoti 150 dan ortiq turli yangi xizmat turlarini o‘z ichiga oladi. Jumladan, biznes xizmatlari, aloqa xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, ta'lim xizmatlari, turizm va unga tegishli xizmatlar, transport xizmatlari, dam olish hamda madaniy va sport tadbirlari singari turlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish va an’anaviy xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlab chiqarilgan bozor xizmatlar hajmini oshishiga olib kelmoqda.[42]

Jahon xo_jaligida tez-tez ro`y berib turadigan iqtisodiy inqirozlar tufayli vujudga keladigan qiyinchiliklarga qaramasdan, ijtimoiy boylikni yaratishning ta‘lim, tadqiqot va innovatsiyalarga asoslangan butunlay yangi tizimi shakllanib bormoqda.

Dunyoning iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarida yalpi ichki mahsuloti o`sish sur‘atining 70-85 % gacha texnologiya, uskunalar, kadrlar tayyorlash, ishlab chiqarishni tashkil qilishda o`z ifodasini topgan yangi bilimlar ulushiga to`g`ri keladi.[43]

Shu o’rinda bizning mamlakatimizda ham xizmatlarni turli yangi yo`nalishlari paydo bo’lishi natijasida xizmatlar sohasining rivojlanishida texnika va texnologiyalar, kadrlar salohiyatini oshirish bo’yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasi sifatida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarning 70 % dan ortig qismi xizmatlar sohasiga to`g`ri

[42] Servis tom1 Servis plus Tom 12 2018 №1 / Service plus Volume 12 2018 #1

[43] A.A. Mamatov, T.T. Jo„rayev, A.N. Erkayev .Innovasion iqtisodiyot. –T.: 2020, 3 bet.

kelishi, hamda jami aholining 55 % dan ortig`i xizmatlar sohasida bandligida ko'rishimiz mumkin. Binobarin, xizmat ko‘rsatish korxonalarini boshqarishning oqilona mexanizmini ishlab chiqish uchun xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalar faoliyatining oxirgi iste'molchilariga, xususan, jismoniy va yuridik shaxslar, umuman, butun mamlakat iqtisodiyotiga roli va ahamiyatini o‘rganish muhim hisoblanadi.

Hozirgi kunda xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatining samaradorligi bevosita strategiyaning asoslanganligiga bog‘liq bo‘lib, uni shakllantirish esa yuqori boshqaruv bo‘g‘inidagi rahbarlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish tashqi va ichki muhitning doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bozorda yetakchi mavqeyini saqlab qolishga imkon yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi texnologik rivojlantirishga katta ahamiyat beruvchi mamlakatlar qatoriga kiradi. Hukumatimiz va boshqa tashkilotlar texnologik innovatsiyalar va texnologik rivojlantirishni o‘zgarishlarni keltirish, iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish va mamlakatning innovatsion potensialini oshirish maqsadida katta e'tibor berishmoqda.O‘zbekiston Respublikasining texnologik rivojlantirishga alohida e'tibori mavjud strategiyalashtirilgan jarayonlar asosida amalga oshirilmoqda. Quyidagi muhim yo‘nalishlarda rivojlantirish amalga oshirilmoqda:

1. Innovatsion ekosistema: O‘zbekiston Respublikasi Hukumati, innovatsion ekosistemaning o‘rnatilishi, startuplarni qo‘llab-quvvatlash va innovatsion faoliyatni rivojlantirish maqsadida inqilobiy qadamlar tashlamoqda. Innovatsion markazlar, startap akselerator va inkubatsiya markazlari kabi institutlar o‘z faoliyatini olib borishda muhim ahamiyatga ega.

2. Texnologik sohalarga investitsiyalar: O‘zbekiston, Respublikasi texnologik sohalarga investitsiyalar miqdorini oshirish va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida qonunlar va shartnoma tizimi orqali jalb qilish jarayonlarini amalga oshiradi. Bunday qo‘llanmalarga asosan, yuqori tezlikli internetga kirish, avtomatlashtirish, ma'lumotlar analitikasi, yangi energiya texnologiyalari va boshqa sohalardagi innovatsion loyihalar kiritilgan.

3. Ilmiy-tadqiqot va akademik soha: Respublikamizda ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari va akademik kengashlar ko‘zgarishlarni olib borishda xavfsizligi ta'minlash, yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish, yangi kadrlarni tayyorlash va talabalar orasida innovatsion g‘oyalar va texnologik loyihalar uchun imkoniyatlar yaratishga qaratilgan.

4. Mahalliy innovatsion loyihalar: Mamlakatimizda, mahalliy innovatsion loyihalar va mahalliy innovatorlarga yuqori darajada e'tibor beradi. Mahalliy innovatorlarga loyiha qo‘llab-quvvatlash, innovatsion startaplarni o‘rnatish, innovatsion jismoniy va yuridik shaxslarga qo‘llanma yaratish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun moliyaviy muhimatlarni ta'minlash maqsadida dasturlar va loyihalar amalga oshirilmoqda.

5. Xalqaro hamkorliklar: O‘zbekiston Respublikasi xalqaro hamkorliklarga katta e'tibor beradi. Mamlakatda xalqaro innovatsion hamkorliklar, texnologik transfer va bilim almashinuvi tashkil etish maqsadida qo‘llanmalarni amalga oshiradi. Xalqaro texnologik institutlar, universitetlar va korporatsiyalar bilan hamkorliklar o‘rnatiladi va o‘zaro ta’lim, ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalar ustida ishlar olib boriladi.

6. Startaplar va innovatorlar uchun qo‘llanmalar: Mamlakatimizda startaplar va innovatorlar uchun qo‘llanmalar taqdim etiladi. Bu qo‘llanmalar orqali innovatorlar loyihalarini amalga oshirish, moliyaviy muhimatlarni ta’minlash, loyihalarni sotish va eksport qilish, savdo va marketing strategiyalarini rivojlantirish, tashqi investitsiyalarni jalb qilish va boshqa texnologik loyihalar bilan aloqalar o‘rnatish imkoniyatlariga ega bo‘lishadi.

Xulosa qilib aytganda , texnologik innovatsiyalar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo’shadi. O’zbekiston Respublikasining texnologik rivojlanish yo’nalishlari mamlakatning kelajakdagi iqtisodiy o’sishiga ijobiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Texnologiya va innovatsiya iqtisodiyotning yuqori produktivlik va ishlab chiqarish darajasiga erishishga imkon beradi. Yangi va iste'mol qilinadigan texnologiyalar, texnik vositalar va usullar ish jarayonlarini avtomatlashtirish, ta'sirini oshirish va ishlab chiqarishda yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Bu esa iqtisodiyotni rivojlantirish, ish o'rinlarini yaratish va ma’lumotlarni samarali ishlashga olib keladi. Innovatsiya va texnologik rivojlanish iqtisodiyotda yangiliklarni o'rnatishga imkon beradi. Yangiliklar iqtisodiyotning dinamikasi, rivojlanishini va sifatini ta’minlayadi. Yangiliklar orqali yangi sohalarda ish o‘rnatish, yangi bozorlarni ochish, yangi xizmatlarni taklif etish va qo‘llab-quvvatlash, yangi xaridorlarni jalb qilish va eksport potensialini oshirish mumkin bo‘ladi. Rivojlanayotgan texnologiyalar va innovatsiyalar iqtisodiyotning sektorlarining strukturasini o‘zgartirishi mumkin. Yangi texnologiyalar va innovatsiyalar sektorlar orasidagi barqarorlikni oshirishi, yangi sohalar yaratish va traditsion ish o‘rnlarni o‘zgartirish imkonini beradi. Bu esa ishga qo‘yiladigan kuchlarni o‘zaro taqsimlash, iqtisodiy diversifikatsiyani o‘zgartirish va sektorlararo integratsiyani rivojlantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.07.2022 yildagi PF-165-son

2. Ishmuhamedov A.E., Djumayev Z.A., Jumayev Q.X. Makroiqtisodiyot. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent – 2005

3. A.A. Mamatov, T.T. Jo,,rayev, A.N. Erkayev .Innovasion iqtisodiyot. – T.: 2020, 3 bet.

3. U.A. Madrahimov. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016 yil

4. Ismailov Baxit Abdireymovich. Xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va tamoyillari. ”Ijtimoiy boshqaruv ” jurnali 3-son 2023 y

3. Servis tom1 Servis plus Tom 12 2018 №1 / Service plus Volume 12 2018 #1

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI VA OMILLARI

A.A.Ablaizov – SamISI mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirish xususiyatlari va omillari tahlil etigan.

Kalit so‘zlar: xizmat, innovatsiya, tadbirkor, iqtisodiyot , transformatsiya, ilmiy-tadqiqot, raqobat, texnologiya.

Hozirgi bosqichda respublikamiz iqtisodiyotida intellektual mehnatning ahamiyati yanada ortib bormoqda, busiz yuqori texnologiyani o‘zlashtirish, xizmatlar bozorida mustahkam o‘rin egallash mumkin emas.

Har bir mamlakat taraqqiyotning barcha manbalaridan bir vaqtda foydalanadi. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va samaradorligi manbalar tarkibi bilan belgilanadi.

Xizmat ko‘rsatish sohasidagi barcha innovatsiyalar asosida muayyan darajada innovatsion texnologiyalar ulushi mavjud bo‘ladi. A.S.Basyuk, Y.I.Manuylova uchta asosiy funksiyaga ega innovatsion texnologiyalarni tasniflaydilar. Birinchi funksiya reproduktiv, ikkinchisi investitsion va uchinchisi rag‘batlantirish bilan bog‘liq funksiyalardir. Birinchi holatda, innovatsiyalardan olingan foyda resurslar manbasini yaratishga sarflanadi. Ikkinchi holda, bu foyda innovatsion ishlanmalarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Uchinchi holatda, innovatsiyalarni joriy etish rivojlanish va yangi kashfiyotlar qidirishni rag‘batlantiradi.

L.I.Donskova, A.G.Redkin, O.V.Otto, N.N.Bespalovalar xizmat ko‘rsatish korxonalari va tashkilotlarini rivojlantirishda innovatsiyalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, o‘ziga xos xususiyatlar quyidagilar hisoblanadi: innovatsiyalar yangi ehtiyojlarni shakllantiradi yoki mavjud ehtiyojlarni qondirish darajasini to‘liqlashtiradi; innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish muhim; muayyan iste’molchiga yo‘naltirilgan mijozlarga yo‘naltirilgan ishlanmalar muhim; xizmat ko‘rsatish korxona va tashkilotlaridagi innovatsion faoliyat nafaqat menejerning innovatsiyalarga bo‘lgan munosabatiga, balki tashkilot xodimlarining innovatsion xulq-atvori bo‘yicha motivatsiyasiga ham bog‘liqdir.

Innovatsion xizmat ko‘rsatishning asosiy yo‘nalishlaridan biri yangi xizmatlarni ishlab chiqish va harakatlantirishdir. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitda xizmat ko‘rsatish korxonalari qisqa vaqt ichida iste’molchilar talabiga javob beradigan mobil, yangi xizmatlarni yaratishi zarur (1-jadval).

“Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasi va tarmoqlarini rivojlantirish muammolari”

respublika ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2024 yil 15 may

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti,
Samarqand - 2024.

ISBN: 978-9910-720-11-6

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)
Nashrga ruxsat etildi: 08.05. 2024 y.
© **“STAP-SEL” MChJ** nashriyoti
Samarqand – 2024 y.

09.05. 2024 y. chop etildi
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 $^{1}/_{16}$, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog‘i 24,43
Buyurtma № 0059A/24. Adadi 50 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo‘limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko’chasi 60-uy.

ISBN:978-9910-720-11-6

